

реал ҳаётий турмуш тарзи билан боғлиқ туйғуларга бой асар юзага келганлиги ҳар томонлама илмий жиҳатдан талқин қилинган.

РЕЗЮМЕ

В статье речь идёт об использовании народным поэтом А.Дабилым в создании дастана «Ханаласлар» традиционных обычаев фольклорных эпических дастанов, об освещении реалистических новых граней традиционных обычаев. А также, проводится всесторонний научный анализ того, что данное произведение вызывает у поэтов чувства, связанные с образом реальной жизни, с дружбой народов.

SUMMARY

In the article is devoted to the using of traditional customs of folklore epic dastans, by the folk poet A.Dabilov showing realistic new verge of traditional customs in creating the dastan "Bahadır". It is also analysed that the given work evokes in readers the feelings, connected with the image of real life and with people's friendship.

HIKOYALARDA TARIXIY SHAXSLAR – TARIX BEZAGI

Z.M.Amirqulova – o'qituvchi

Termiz davlat universiteti

Tayanch so'zlar: tarix, hikoya, adabiyot, obraz, mustaqillik, ijodkor, muallif, Mahmud G'aznaviy, Firdavsiy, Beruniy.

Ключевые слова: история, литература, образ, независимость, создатель, автор, Махмуд Газнавий, Фирдавси, Беруни.

Key words: history, literature, image, independence, creator, author, Mahmud G'aznaviy, Firdausiy, Beruniy.

Istiqlol tufayli qayta tiklanayotgan milliy tariximizni to'g'ri anglash uchun uni badiiy adabiyotda haqqoniy aks ettirish talab etiladi. Ijodkorlarimiz shu masuliyatni chuqur his qilib, ijodiy erkinlikdan foydalangan holda tarixiy mavzuda ko'plab asarlar yozdilar. Ularda Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimiz obrazlari mahorat bilan yaratildi. Istiqlol davri o'zbek adabiyotidagi o'ziga xos o'zgarishlar bugungi adabiy jarayonda tahlil etilmoqda. Istiqlol davri o'zbek adabiyoti inson hayotidagi turfa xil iztiroblarni, ziddiyatlarni, inson tafakkuridagi o'zgarishlarni haqli ravishda tasvirlash an'anasini yuzaga chiqardi. Fikr va ruhning yangilanishi estetik qarashlarning ham bugungi kun nuqtayi nazaridan o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Istiqlol davri o'zbek adabiyotining xarakterli jihatlari haqida bir qator ijodkor va adabiyotshunoslar asosli mulohazalarini qayd qilganlar. Jumladan, taniqli adabiyotshunos olim Q.Yo'ldoshev bu to'g'rida quyidagi fikrlarni bayon etgan edi: "Istiqlolga erishilgandan keyin yaratilgan ko'pgina asarlarda oliy rutbaga ko'tarilgan, dunyo yaralishining sababi, adoqsiz ilohiy nur ila yo'g'rilgan zot deb qaralgan insonning hayvoniy va shaytoniy nafs bo'is gunohga moyil hamda o'sha gunohlar tufayli qabihliklar ham qilishga qodir, ayni paytda qilgan gunohlari sabab qiyinaladigan o'ta murakkab mavjudot ekanini tasvirlanmoqda. Istiqlol adabiyoti insonni jo'nlikdan, to'porilikdan, anchayinlikdan qutqardi. Uni murakkablashtirdi, noziklashtirdi, bir xil qarashlar tizimi bilan tushunib ham, tushuntirib ham bo'lmaydigan injiqroq ekanligini ro'y-rost aks ettira boshladi" [1:16-17].

Istiqlol davri badiiy – estetik tafakkuridagi bunday o'zgarishlar olam va odamga teranroq nazar solish va globallashuv jarayonida kechayotgan o'zgarishlarni badiiy talqin etar ekan, estetik ideallarning, yoki jahon adabiyotidagi yetakchi tamoyillarni badiiyat tarkibiga kirib kelishi bilan ham uzviy bog'liqdir. Shuning uchun adabiyotshunos N. Rahimjonov istiqol davri adabiyotining xarakterli jihatlarni quyidagicha izohlagan edi: "Istiqlol adabiyotining muhim fazilatlarini, o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi bir qator yetakchi tendensiyalar ko'zga tashlanadur. Chunonchi, millatning o'z-o'zini anglashida, o'zlikni qadrlashi va ulug'lashida, milliy iftixor tuyg'ularining shakllanishida badiiy tafakkur madaniyatining sifat o'zgarishlari namoyon bo'layotir. Yana bir yetakchi tamoyil – bu adiblarimiz xoh tarixiy voqelikka, xoh diniy g'oyalarga, xoh bugungi kunga murojaat etishadimi, mohiyat ham millat birligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasi bilan ajralib turadi" [2:11].

Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri tarixiy o'tmishda sodir bo'lgan voqealar, yaqin yoki olis o'tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag'ishlangan asarlar yaratishdir. Ilmий tadqiqotlardan farqli o'laroq, yozuvchi tarixiy mavzudagi asarda tarix haqiqatiga suyangan holda to'qimadan ham samarali foydalanadi. Yozuvchi tarixiy shaxslar bilan birga shu shaxslar obrazini yorqin mujassamlantirish, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroflicha yoritish maqsadida to'qima qahramonlar obrazini asarga olib kiradi [3:5].

Uzoq tarix silsilasidagi ulug' insonlarning o'tmishda tutgan o'rni va egallagan mavqeyi haqida fikr yuritish hamma zamonlarda ham murakkab kechgan. Zero, insoniyat tarixida jamiyatni o'z qo'li ostida boshqarib, hayotning yana boshqa sohalarida faoliyat ko'rsatib o'chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslar haqida atroflicha so'z yuritish chuqur ilmiy mushohada va salohiyatni, keng va teran tafakkur egasi bo'lishni, shu bilan birga xolislikni talab etadi.

Ushbu jihatlarni o'z oldiga maqsad qilib olgan taniqli hikoyanavis Rahimjon Otayev ham o'zining "Tavba" hikoyasida bir qator tarixiy shaxslar obrazining haqqoniy chizgilarini ko'rsatib o'tadi.

"Tavba" hikoyasi "Mahmudlar" turkumiga kiruvchi uchinchi hikoya bo'lib, unda G'aznaviylar sulolasidan bo'lgan hukmdor sulton Mahmud G'aznaviyning, shuningdek, mashhur allomalar: Abu Rayxon Beruniy, Abulqosim Firdavsiylarning hayoti va ijodi bilan bog'liq hodisalar real voqealar asosida tasvirlanadi.

G'aznaviy shaxsi haqida to'xtalar ekanimiz, uning Movarounnahr hududida turkiy davlatlaridan biri G'aznaviylar davlati podshohi bo'lganligi va uning otasi Sabuktegin bo'lganligini eslab o'tamiz. Shuningdek, Mahmud G'aznaviy ulug' olim Beruniy va jahonga mashhur alloma Abulqosim Firdavsiylar bilan bir davrda G'azna shahrida yashaganliklarini yodga olamiz [4:196].

Yozuvchi hikoyaning boshlang'ich qismini o'ttiz yildan so'ng dunyo yuzini ko'rgan butun dunyoga mashhur alloma Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asarini yaratganligi va bu asar sulton Mahmud G'aznaviyga taqdim etilganligi, uning bu asarni mutolaa qilganligi haqidagi epizodlarni quyidagicha tasvirlar orqali ifodalaydi: "Sulton Mahmud G'aznaviy shoiri zamon Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asari mutolaasini nihoyasiga yetkazib, qattiq hayajonlanganidan beixtiyor o'rnidan turib ketdi". Tasanno! – xitob qildi o'zicha.

– Mayli, turkiyda bo'lmasa forsiyda, har qalay, jahon adabiyotida misli ko'rilmagan olamshumul asar bo'libdi-ku bu! Nafaqat Eron bilan Turonda, Arab bilan Ajamda, bu yog'i – Chin-u Mochin, u yog'i – Hind-u Sindda, hatto butun bashariyat tarixida bunaqangi asar bo'lmagan! Eron bilan Turonning o'zaro munosabatlari atroflicha qamalga olingan chinakamiga shohona asar-ku bu! O'ttiz yil mobaynida o'zim bunyod etgan ulug' saltanatim dovru'g'ini yetti iqlimga-yu yetti pushtimga yetkaza oladigan eng umriboqiy asar bu! Qalamravimda shunday bir asarning dunyoga kelganini ko'rishni muyassar qilganing uchun O'zingga beadam shukur, Parvardigori olam! O'ttiz yil mushtozlik bilan kutib bo'lsam-da, axiri shunday bir shoh asarni ko'rar kunim bor ekan-a bu o'tkinchi dunyoyi dunda!"

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Mahmud G'aznaviy hukmronligi davrida mamlakatni odillik bilan boshqargan hukmdorlardan hisoblanadi. Uning hukmronligi davrida ilm-ma'rifat, san'at, adabiyot gullab-yashnadi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Asarni o'qib chiqqan Sulton Mahmud G'aznaviy qalbida o'zgacha bir faxr va muallifga nisbatan yuksak bir iftixor tuyg'usini tuyub, ko'z oldida roppa-rosa o'ttiz yil avvalgi bir tarixiy voqea qayta jonladi: "O'shanda otasi Amir Sabuqtegin, taxtiga endigina o'tirgan qirchillama yigit edi. Mamlakatdagi

jamiki fozil-fuzalo va shuaroni saroyga chorlab, ulkan bir mashvarat tashkil etdi-da, ularning oldiga birgina savolni ko'ndalang qo'ydi:

“Ulug' saltanatim dovruq'ini olamga tanitmoq uchun, qani kimning qo'ldan nima ish keladi, bu yo'lda kim qanday rag'batimga muhtoj?!” [5:55].

O'shanda ko'ndalang savoliga javoban aytilgan behisob adabiy orzular, ijodiy rejalar, tantanali va'dalar, shunchaki chiranishlar-u o'taketgan lof-qoflar orasida, ayniqsa, ikki gap ko'ngliga mahkam o'tirishdi.

Avvaliga qadimiy Xorazmning chekka bir qishlog'ida tavallud topgan yoshgina olim Abu Rayhonning aytgan gapi xotirasiga o'chmas bo'lib muhrlandi:

“Afsonaviy Hindiston haqida shunday bir kitob yozishni orzu qilamanki, olampanoh, u mo'jizalar mamlakatining o'zidek bir mo'jizaviy tillo kalit sifatida sizning bu mamlakatga zafarli yurishlaringizda baayni bir yo'lochar bo'lsa deymanki!”

O'zini behad mamnun qilgan ikkinchi gapni poytaxt G'azna shahri yaqinidagi bir qishloqchada tavallud topgan Abulqosim degan navqiron shoir aytdi:

“Eron bilan Turonning shonli tarixi haqida shunday bir shohona asar yozish orzum bor, u nainki turk-u fors, Arab-u Ajam, balki butun jahon adabiyotida ham tengsiz – Benazir bo'lib saltanatingiz dovruq'ini olamga taratsa!”

Tarix zarvarqalarida bitilgan bu ma'lumotlar Abulqosim Firdavsiyning G'azna shahri yaqinidagi bir qishloqda tug'ilib voyaga yetganligi va avlodlarga me'ros qilib qoldirilgan shunday bir noyob asarning yozilishi uchun salkam o'ttiz yil sarflanganligidan darak berib turibdi.

Ha, bu asar o'sha o'ttiz yil avvalgi va'daning mahsuli edi. Jamoa ahlining oldida berilgan va'dasini o'ttiz yil o'tib “Shohnoma”dek bir buyuk asarni tugallab sultonga taqdim etish Abulqosim Firdavsiyga nasib qilgan edi.

“O'sha kundan e'tiboran “Har kimning niyati – yo'ldoshi!” deya jami ikki yuzdan tuproq niyatlarini nisbatan ezgu va ishonch-u umid hislari uyg'ota oladigan olimlar, shoirlar, solnomachilar, xattotlar, mo'yqalam ustalari va boshqa ulamo-fuzaloni jamlab, ularga xazina hisobidan maxsus oylik maosh tayin etdi. Olimlarga – Abu Rayhonni, shoirlarga – Abulqosimni bosh qilib qo'ydi”.

Hukmdor sifatida Mahmud G'aznaviyni bilim- ma'rifatli kishi bo'lganligi haqida va g'aznaviy hukmdorlar ichida olim-u fuzalolarni saroyida to'plab, ularga ijod qilish uchun o'z saroyida muhit yaratganligi tarixdan bizga yaxshi ma'lum.

Abulqosimni saroydagi barcha shoirlarga bosh bo'lmoqni taklif qilganda, Abulqosim rad javobini beradi: “O'shanda Abu Rayhon shohona iltifotini munosib qadrlab poyiga bosh urdi. Lekin Abulqosim degan shoir... alpdek qomatini rostlab, ko'ksini kerib dediki: “Qafasda sayragan bulbul, aslini olganda, bulbul emas, to'tidir olampanoh! Meningdek erkin qushni farmoni oliy bilan firdavsmonand boqqa uchirma qilsangiz, toki o'ttiz kunmi – o'ttiz oymi – o'ttiz yilda asl bulbul xonishini ko'ngildagidek xatga tushirib kelay-da, janobi oliylarining ulkan ishonchlarini to'la oqlay!”

Abulqosim tabiatan og'ir, bosiq, ammo o'z g'ururini har narsadan ustun qo'yishi bilan, shuningdek, uning uchun saroy qafasdek edi go'yo. Saroyda qolib kim nima desa takrorlab to'ti bo'lganda, o'rtahollikda bo'lsa-da, erkinlikda yashab, ijod qilishni tanlagandi, o'shanda Abulqosim! U hech qachon saroyda erkin ijod qilolmasli-gini yaxshi bilardi. Boshqa bo'lganda bu mansabni jon-jon deb qabul qilishi mumkin edi, ammo Abulqosim... O'sha voqealardan keyin naq o'ttiz yil o'tdi.

“Mana, Xudoning qudrati-yu falakning gardishi bilan o'shandan buyon oradan oz emas, ko'p emas o'ttiz yil zuvullaganicha o'tib ketibdi-ya, buni qarang! “O'ttiz yil” deganlari, balki, manavi abadiyatga daxldor asar, umuman, abadiyatni o'ziga qiyoslaganda baayni kapalak umridek bir lahzalikkina bo'lsa ajab emas” [5:55]. Endi esa hukmdor-ning xayolidan bu shohona asarni qanday shohona rag'batga loyiq ko'rmoqlik haqidagi o'y-fikrlar o'ta boshladi va shu maqsadda oshiga saroy shoirlarining sardori malikushshuaroni chorladi:

“Qush tilini qush biladi deganlar. Qani, bu borada saroy shoirlarining sardori Malikushshuaro Unsuriy hazratlari nima der ekanlar bir fikrlarini olib ko'raylik- chi!..

Pakanagina Unsuriy pildirab kelib Sulton Mahmud poyiga bosh urdi. Iltifotni imkon qadar qisqaroq qilib ko'ndalang qo'yilgan savolga javoban janobi Unsuriy da'atab jiddiylashib, bir muddat o'ylanib qoldi-da soxta salobat bilan dedi:

Faqirning fikri o'jizini so'raganingizdan keyin ro'yi-rost ay-tishga majburman, olampanoh! Albatta, bu asarning sal-mog'iga gap yo'q, lekin... Sizning turkiyongizda emas, for-siyda yozilganiga, balki chidash mumkindir, faqat ...Eronni ko'klarga ko'tarib, Turonni tuproqlarga qo-rishtirish!.. Janobi Oliylarining tuzini ichib, tulug'iga tupurish bilan barobar emasmi, olampanoh?!

Insonlarning bir-biriga bo'lgan adovati, fisq-u fasod, kimn-ingdir muvaffaqiyatini hazm qila olmaslik va bir qancha shun-day jirkanch illatlar har qachon, har qanday zamonda va har doim bo'lib kelgan. Hikoyaning ushbu qismlarini mutolaa qilar ekanmiz shu o'y-xayollar ko'nglimizdan o'ta boshlaydi.

Vaziyatdan unumli foydalangan Unsuriy bir necha vajlarni keltirgan holda, o'z maqsadiga yetgandi, u Sulton Mahmud-ni yuragida Abulqosim Firdavsiyga, uning shohona asariga nisbatan nafrat olovini yoqib ulgurandi:

“Sulton Mahmudning naq yuragiga o'q qadalgandek bo'ldi. Ko'nglidagi yengilgina o'qsish-o'qsinish uchquni bir zumda g'azab-u nafrat oloviga aylanib loy-loy yondi go'yo.

Ertasiga “Shohnoma” asarini taqdirlashga bag'ishlangan qabul marosimida muallif sha'niga ikki og'iz nordongina gap qilgach ko'zlariga baqadan sovuqroq ko'rinish turgan shoirning shoh asariga... O'ttiz yil avval va'da qilinganidek, har bir satri uchun bir tillo emas, kumush tangalarni “shohona in'om” qildi-da, tantanali qabul marosi-mining barcha qatnashchilari oshkora quvlab yubordi: o'zini yolg'iz qoldirishlarini buyurdi”.

Hikoyaning mana shu qismiga kelganimizda, Sulton Mahmud obrazining qaysi bir jihatlari, undagi beqarorlik, o'z so'zida tura olmaslik, fisq-u fasod va kibr-u havo iskanjasiga tushganlik kabi xislatlar mujassamlanganligini ko'ramiz.

Bo'lib o'tgan voqealarni zimdan kuzatib turgan ilm-fan sul-toni Abu Rayhon Beruniy vaziyatga aralashishga majbur bo'ladi va sulton Mahmud poyiga bosh uradi:

“Bir qoshiq qonimdan kechgaysiz, olampanoh!.. Men mut-laqo tushunmay qoldim! Hayot anovi jahon adabiyotiga butun-lay yot bir da'voni axiri urishtirib, o'ttiz yillik pastarin murodiga nihoyat yetgan bo'lsa?! G'aznaviylar mulkining sultoni – siz, she'riyat mulkining sultoni Firdavsiylik barcha ko'zlariga ayon ko'rinish turibdi, bas, shunday ekan, allaqanday yuragi tor ultonning ablahlarcha qutqusiga uchish... sizdek aqli butun va bag'rikeng turkiy hukmdoriga munosib ishmi, olampanoh?! Saltanatingiz hududida dunyoga kelgan “Shohnoma”dek jahon adabiyotining nodir durdonasi ko'rganda, xafa emas aksincha, xursand bo'lishingiz kerak edi-ku! Ne bir saltanat sohiblari tushida ham ko'rmagan shunday beqiyos baxt-saodat aynan sizga muyassar bo'lganidan qahr-lanishning o'miga, aksincha, faxrlanish darkor emasmi, olam-panoh?! Axir, bu o'tkinchi dunyoda siz-u biz o'tamiz, Unsuriy bilan Firdavsiydek shoiri zamonlar ham o'tadilar. Hamma o'tadi! Faqatgina “Shohnoma”dek umrboqiy obidalar saqlanib qoladi. Agar qolsa yana... shunday asarni yoza olgan daho bilan uni munosib qadrlagan podshogina qoladi!..”

Ha, Beruniyning jon kuydirishi bejizga emasdi. Haqiqatan, “Shohnoma”dek nodir asarning aynan Sulton Mahmud G'aznaviy saltanati hududa yozilishi va bu asarning qaysi tilda bitilishi, turkiyda emas forsiyda bitilganligi ham hukmdor tomonidan yuksak baholarga sazovor bo'lishi lozim edi aslida. Ammo bu so'zlarni aytishi bilan alloma hukmdorga oyna tut-gandek bo'ldi go'yo!

“O'sha kunning ertasiga sulton Mahmud G'aznaviyni yangi farmoni oliysiga ko'ra “Shohnoma” asarining har bir satriga bir tilla to'lanadigan bo'ldi.

Ammo bu tillo tangalar o'zining munosib egasiga nasib etmadi.

O'sha kuni butun G'azna shahri gadolari – Abulqosim Firdavsiy sadaqa qilgan kumush tangalardan, she'riyat muxlis-lari esa, shoiri zamonning “Shohnoma” asaridan qolishmaydi-gan yangi shoh asari – “Sulton Mahmud hajvi”dan behad xursand edilar. Nafaqat yaxshi gapning gadolari-yu she'riyat muxlis-lari, butun saltanat ahli ham xursand-baxtiyor edi.

O'ttiz yil mobaynida jon olib-jon berib qilgan jamiki toat-
ibodatimni o'tdek kuydirib, to qiyomatga qadar kelgusi av-

lodlar oldida yuzimni qora qilmagaysan O'zing! Tavba qildim
O'zingga, Tavba!..

Adabiyotlar

1. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2006. 16-17-b.
2. Rahimjonov N. Istiqloq va bugungi adabiyot (Adabiy-estetik, tanqidiy tafakkur tamoyillari). –T.: “O'qituvchi”, 2012. 11-b.
3. Oripov A. Adabiyot va zamon. Mustaqillik davri adabiyoti. Adabiy-tanqidiy maqolalar, badialar. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matba uyi, 2006. 5-b.
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 196-b.
5. // “Sharq yulduzi” № 2, 55- b. 2009.

Ushbu maqolada mustaqillik davri o'zbek adabiyotida yaratilgan tarixiy hikoyalarda ifodalangan tarixiy shaxslar, jumladan, tanqli hikoyanavis Rahimjon O'tayevning “Tavba” hikoyasida ifodalangan Mahmud G'aznaviy, Firdavsiy, Beruniy kabi tarixiy shaxslar obrazlari badiiy talqin etilgan.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящается художественной интерпретации исторических деятелей узбекской литературы периода независимости, Махмуда Газнави, Фирдавси, Беруни, в рассказе «Покаяние» известного писателя Рахимжона Отаева..

РЕЗЮМЕ

The article is devoted to the literary-artistic interpretation of the historical figures in the Uzbek literature of the independence period such as Mahmud Ghaznavi, Firdausi, Beruni in the story "Repentance" by the famous writer Rahimjon O'tayev.

SUMMARY

I.YUSUPOV LIRO-EPIKALIQ POEMALARININ KORKEMLEW USILLARI HAM ONIN AHMIYETI

Z.M.Ayimbetova - tayanish doktoranti

Berdaq atindagi Qaraqalpaq mamleketlik universiteti

Tayanch so'zlar: badiiy tasvir usullari, figura, trop, antiteza, parallelizm, inversiya, gradatsiya, badiiy takror.

Ключевые слова: методы художественного изображения, фигура, троп, антитеза, параллелизм, инверсия, градация, художественное повторение.

Key words: methods of artistic image, figure, trope, antithesis, parallelism, inversion, gradation, artistic repetition.

Korkem shigarmada, asirese, lirikada korkem suwretlew usullarini shigarma mazmunin jetkeriwdegi xizmeti ayriqsha. Shayirlar insan ruwxiy aleminin har qiyli keshirmelerin korkem suwretlew usullarini jardeminde sawlelendiredi. Korkem suwretlew usullari ishki forma korkemligin tamiyinlep, shigarmani emotsional tasirshenligin arttiradi. Adebityatshilarga malim, korkem forma, korkem mazmuniga xizmet etip kelgen, korkem mazmun korkem formada gana oz sawlениwine iye boladi. Bul tuwrali belgili rus adebiyatshisi M.Girshman bilaynsha jazadi: «Forma – material, ozinde soylew tilini barliq bayliqlarin, korkemlew usullari menen korkemlew qurallarini zatliq korinisin alip juriwshi material» [1:62].

Shigarmada formani mazmundi jetkeriw xizmeti korkem suwretlew usullari arqali amelge asiriladi. Suwretlew usullari jardeminde korkem soz sheberi ozini aytajaq pikirine ayriqsha mani beriwe, ogan ayriqsha salmaq juklewe erisedi. Lirikaliq keshirmelerdi, turmishliq, jamiyetlik ham tabiiy hadiyselerdi korkem haqiqatliqqa aylantirw jollari, suwretlew usullari bolip esaplanadi.

Korkemlik, obrazlilik doretiwshini tek soz talaw, soz taba biliw sheberliginen gana emes, al sozlerdi baylanistirw, gap duziw ham ayriqsha intonaciyaqa qurw ozgesheligen de baylanisli boladi. Shigarma qurilisindagi fraza ham gaplerdi duziw usullari sintaksislik yamasa poetikalik figuralar dep atalip, shigarmani obrazlilik, tasirshenligin tamiyinlewge tikkeley qatnasadi.

Lirikada poetikalik mazmundi sawlelendiriwdin obrazli suwretlew usullari da ozgeshelikke iye. Suwretlew usullari korkem shigarma putinliginde ayriqshalıqqa iye bolip, ayqinlıq, korsetpelilik belgisine iye bolip esaplanadi.

Suwretlew usullarini teoriyalıq tiykarları koplegen ilimpazlar tarepinen uyrenilgen, olar tuwrali belgili darejede teoriyalıq juwmaqlar islegen. G.Abramovich, B.Tomashevskiy, V.Polyakov, F.Losev, M.Lazareva, T.Boboev, E.Xudayberdiev, N.Shukurov, S.Axmetov, J.Esenov, Q.Jarimbetov, Q.Orazimbetov, B.Genjemuratov h.t.basqalardin adebiyat teoriyasına baylanisli miynetlerinde suwretlew usullarini teoriyalıq anıqlamalari keltirilgen.

Shigarmalardagi figuralarğa da poetikalıq elementler sıpatında qatnas jasawımız korkem shigarma tuwralı tusiniklerimizdi jane de keñeytedi. «Har bir jazıwshi tilini sintaksislik qurılısı ozinshelik sıpatlarğa iye,—dep jazadı G.L.Abramovich, — bul qurılıs jazıwshi doretpesini ulıwma sıpatına da, sawlениwshi anıq bir obyektke de ham jazıwshini maqsetine garezli. Jazıwshi doretpesini ulıwma sıpatı onı ozinshelik jazıw usılında ham poetikalıq sintaksiste jamlengen» [2:164]. Figuralar til ilimi kozqarasınan A.Bekbergenov miynetlerinde izertlengen [3].

Troplar degende, biz paydalanılğan sozlerdin, soz dizbeklerini ham pikir-tusiniklerdin awıspalı, koshpeli, obrazlı basqa manige iye bolıwın tusinemiz. Al, figuralarda bolsa gaplerdin, soz dizbeklerini, qatarlardin avtor tarepinen qalay duzilgenligin, sozlerdin qalay jaylastırılğanlıgın, qaytalaniwların, jupkerlesip keliwin, manilik jaqtan qarama-qarsı yamasa parallel qoyılıwın tusinemiz.

Qalegen korkem shigarmada, sonın ishinde, lirikaliq shigarmalarda da shayirlar ozini dunyaga kozqarası, oy-pikirleri negizinde belgili bir ideyalardi alga qoyadi. Olar ozlerini usınday ideyalıq maqsetlerine saykes turde turmishliq waqıyalardi ozinshe juwmaqlastırw jolların, korkem suwretlew usulların talawı kerek. I.Yusupovtin “Watan topırağı”, “Mamelek oy”, “Bulbil uyası” lıro-epikalıq poemalarında suwretlew usullarini bir neshe turi qollanılğan bolip, olar mazmunin korkemligin tamiyinlew ushin xizmet etip keledi.

Korkem adebiyatta onimli qollanılatusın suwretlew usullarini biri – **antiteza usılı**. «Antiteza (greksheden “qarama-qarsı” degendi anlatadı). Korkem shigarmada waqıyalar, obrazlar, tusinikler biri-birine qatañ qarama-qarsı qoyılsa antiteza usılı kelip shıgadı» [4:18]. Antiteza eki yaki bir neshe hadiyseni belgilerin oz ara qarama-qarsı qoyıw arqalı sawlelendiredi. Antiteza, kobinese, antonim sozler arqalı payda etiledi.

Jawratpañ, afendim, aqıl-sanañdı,

Ömir bazda jaqtı, bazda qarañğı,

Sabırılı qul jeter deydi muratqa,

Kim **dárt berse, emler ózi** jarañdı. [5:93]

Antiteza jardeminde suwretlenip atırğan obyektte ishki qarama-qarsılıǵı menen ashıwǵa, waqıya, hadiyselerdi ayqın sawlelendiriwge erisilgen. Lirikaliq qaharmannın ómir haqqındaǵı kozqarasları berilgen. Bul qatarlardin mazmunında lirikaliq qaharmannın insan tagdiri, ómir haqqındaǵı tusinikler, kozqarasları turadı da, adam ómirini qarama-qarsılıqlardan: quwanış ham qayǵı, táshwish ham shadlıqlardan ibarat ekenligi soz etiledi. Haqiqatında da, ómirdin ózi qatañ qarama-qarsılıqlardan ibarat. Solay eken, shayirlar doretiwshiliginde de dunya, ómir ham adamlar tagdiri haqqındaǵı tusinik ham kozqarasları sawlelendiriwde antiteza eñ bir utmılı usıl esaplanadı. Buni jane de mına misaldan da kóriwimizge boladı.

Birew qurıp-dúzip atar,

Birew onı buzıp atar,

Bir imarat pitpey jatar

Adamzat jaralǵan gezden. [6:336]

Biz tallawǵa tartıp otırǵan “Bulbil uyası” poemasında kóbi-rek kózge taslanatusın figuralardin biri – **parallelizm**. «Parallelizm (grekshe, parallelismos) eki qubılıs yaki hareketin biri-biri menen turaqlı qatnası ham birlikte keliwi. ... poetikada